



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
<i>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
<i>Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon</i>	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
<i>Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
<i>Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi</i>	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
<i>Sattarov Farrux Nuridinovich</i>	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
<i>D. K. Ibadullayev</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
<i>Isabekova Dilafruz Shermirzayevna</i>	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
<i>Юсупова Элеонора Фердинандовна</i>	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
<i>Matyaqubova Nazira Hikmat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
<i>Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li</i>	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
<i>M. D. Boynazarova</i>	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
<i>Нормуратов Абдулла Саппарович</i>	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
<i>Normuratov Abdulla Sapparovich</i>	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
<i>Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
<i>Omonova Charos Baxodir qizi</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<i>Saidova Zulfizar Norbobo qizi</i>	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
<i>Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna</i>	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
<i>Abdullayev Botir Jabbor o'g'li</i>	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
<i>Abdumannan Maxammatov</i>	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatleri 198 Salomov Abdurasul Axmadovich</p> <p>Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi 201 Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaeva Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev</p> <p>Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari..... 205 Sojida Safarova Saxadin qizi</p> <p>Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida..... 207 Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi</p> <p>Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish 210 Xoldorova Mashxura G'ulomovna</p> <p>Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов 214 Нурбаев Бахтиёр Шириневич</p> <p>Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari..... 217 To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna</p> <p>Ta'lim jarayonida va talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati 223 X. Xalilova, N. Niyazova</p> <p>Optimization of Periodontal Disease Treatment Tactics in Patients With Chronic Hepatitis C After Achieving a Sustained Virological Response 227 Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna</p> <p>Pathogenetic and Clinical Rationale for the Prevention and Management of Periodontal Diseases in Workers Within Dust-Hazardous Environments 230 Turumova Marjona Bakhodirovna</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyati va kasbiy madaniyati 233 Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Soloyeva Rayhonoy Ravshanbek qizi</p> <p>Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan ijodiy muhitni tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslari 236 Sultanov Xaytboy Eraliyevich</p> <p>Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali o'smirlarda huquqbuzarlik profilaktikasining pedagogik asoslari 241 Umarov Qobiljon</p> <p>Maktab o'quvchilari orasida kiberbulling profilaktikasi yo'llari 245 Jannazarova Juldizxan Aliiyar qizi</p> <p>Kimyo ta'limi jarayonida kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 250 Allaberdiyeva Zebinisobegim Ismoiljon qizi</p> <p>Universality in Phraseological Units in English, Dutch and Uzbek 253 Khaydarova Guzalkhon</p> <p>Texnologik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: universitet darajasida istiqbollor 256 Musurmonova Ma'mura Oman qizi, Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna</p> <p>Chet el va mahalliy tajribalarda muhandislik musobaqalari samaradorligi 261 N. Nomozova, A. Muxamadiyev</p> <p>Autizm spektri buzilishlarining klinik-pedagogik xususiyatlari va ularni korreksiyalashning ilmiy asoslari..... 267 Polatova P. M., Polvonova Kishchan Ravshanovna</p> <p>Tenglamalar ildizlarini aniqlashda vatarlar usuli va python dasturiy modeli 272 Rizayeva Bahoroy Jahongir qizi</p> <p>Algebra fanini o'rganishda talabaning xatolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish usullari 277 Zaxiriddinova Shahlo Zahiriddin qizi, Norboyeva E'zoza O'tabek qizi, Oqbutayeva Sumbula Normuhammad qizi</p> <p>Интегрированный подход как основа развития русской связной речи иноязычных студентов неязыковых специальностей 280 Бозорова Хулкар Одинакуловна</p>
-------------------------------------	---



MAKTAB O'QUVCHILARI ORASIDA KIBERBULLING PROFILAKTIKASI YO'LLARI

Jannazarova Juldizxon Alliyar qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Bulling hodisasi zamonaviy jamiyatning dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolaridan biri sifatida tahlil qilinadi. Ilmiy tadqiqotlarning tarixiy evolyutsiyasi, akademik qiziqishning shakllanishi hamda institutsional infratuzilmaning (nashrlar, anjumanlar, tadqiqot markazlari) rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Bullingning asosiy ko'rinishlari – og'zaki, jismoniy va kiberbulling – hamda ularning maktab va virtual muhitdagi namoyon bo'lish xususiyatlari tavsiflanadi. Tazyiq paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, tajovuzkor va jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari, guruhdagi noqulay ijtimoiy-psixologik muhit, guvohlarning befarqligi va tajovuzni qo'llab-quvvatlash holatlari aniqlanadi. Jabrlanuvchilar uchun psixologik va somatik oqibatlar, xususan, depressiv holatlar hamda suitsidal xulq-atvor xavfi tahlil qilinadi. Ziddiyatlarni monitoring qilish, hodisalarni hujjatlashtirish, pedagoglar, ota-onalar, maktab psixologlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, yagona axloqiy me'yorlar va tazyiqlarga nisbatan murosasizlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan kompleks profilaktika zarurati asoslab beriladi. Media va kinematografiyaning jamoatchilik xabardorligini oshirish hamda potensial tajovuzkorlarga nisbatan demotivatsion ta'sir ko'rsatishdagi o'rni qayd etiladi. Ta'lim muassasalari va jamiyat miqyosida fanlararo tadqiqotlarni kengaytirish hamda tizimli choralarni amalga oshirish zarurligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: bullying, mobbing, maktabdagi tazyiq, kiberbulling, og'zaki tajovuz, jismoniy zo'ravonlik, psixologik oqibatlar, profilaktika, ijtimoiy-psixologik muhit, guvohlar, himoyachilar.

Abstract: Bullying is examined as a pressing socio-psychological problem of modern society. The historical evolution of research, the development of academic interest, and the formation of institutional infrastructure (publications, conferences, research centers) are analyzed. The main forms of bullying—verbal, physical, and cyberbullying—are described, along with their manifestations in school and virtual environments. Factors contributing to bullying are identified, including personal characteristics of aggressors and victims, an unfavorable socio-psychological climate within groups, bystander indifference, and the reinforcement of aggression by others. The psychological and somatic consequences for victims, such as depressive states and the risk of suicidal behavior, are examined. The necessity of comprehensive prevention is substantiated, including conflict monitoring, documentation of incidents, strengthening cooperation among teachers, parents, school psychologists, and law enforcement agencies, as well as the development of unified ethical standards and a culture of intolerance toward bullying. The role of media and cinematography in raising public awareness and discouraging potential aggressors is also highlighted. The conclusion emphasizes the need to expand interdisciplinary research and implement systematic measures at both educational and societal levels.

Key words: bullying, mobbing, school harassment, cyberbullying, verbal aggression, physical violence, psychological consequences, prevention, socio-psychological environment, bystanders, defenders.

Аннотация: Буллинг рассматривается как актуальная социально-психологическая проблема современного общества. Анализируются историческая эволюция научных исследований, формирование академического интереса и развитие институциональной инфраструктуры (публикации, конференции, исследовательские центры). Описываются основные формы буллинга – вербальный, физический и кибербуллинг – а также особенности их проявления в школьной и виртуальной среде. Выявляются факторы, способствующие возникновению давления: личностные характеристики агрессора и жертвы, неблагоприятный социально-психологический климат в группе, равнодушие свидетелей и поддержка агрессии со стороны окружающих. Рассматриваются психологические и соматические последствия для жертв, включая депрессивные состояния и риск суицидального поведения. Обосновывается необходимость комплексной профилактики, включающей мониторинг конфликтов, документирование инцидентов, усиление взаимодействия между педагогами, родителями, школьными психологами и правоохранительными органами, а также формирование единых этических норм и культуры нетерпимости к насилию. Отмечается роль средств массовой информации и кинематографии в повышении общественной осведомленности и демотивации потенциальных агрессоров. Делается вывод о необходимости расширения междисциплинарных исследований и реализации системных мер на уровне образовательных учреждений и общества.

Ключевые слова: буллинг, моббинг, школьное давление, кибербуллинг, вербальная агрессия, физическое насилие, психологические последствия, профилактика, социально-психологическая среда, свидетели, защитники.

KIRISH

Bulling bugungi kunda zamonaviy jamiyatning eng muhim muammolaridan biri sanaladi. U nafaqat maktab yoshidagi bolalarga, balki talabalar muhitiga, shuningdek, turli tashkilotlarning kasbiy jamoalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Nima uchun bulling dolzarb muammo hisoblanadi? Yoshlar o'rtasida turli ijtimoiy guruhlarda bezorilikning tarqalishini baholashga qaratilgan har yilgi so'rovlar natijalariga ko'ra, respondentlarning o'rtacha yarmi bezorilikka duch kelganini yoki uning qurboni bo'lganini qayd etadi. Garchi guruh bo'lib ta'qib qilish barcha tarixiy davrlarda mavjud bo'lgan bo'lsa-da, uni jiddiy e'tibor va maxsus choralarni talab qiladigan ijtimoiy hodisa sifatida anglash nisbatan yaqinda shakllandi.

Bullingning ilmiy tadqiq etilishining tarixiy evolyutsiyasini ushbu hodisaga bag'ishlangan ixtisoslashtirilgan nashrlar va maxsus konferensiya materiallari asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bezorilik muammosiga bag'ishlangan birinchi ilmiy tadqiqot 1969-yilda P. Haynemann tomonidan nashr etilgan; o'sha paytda "bulling" atamasi hali ishlatilmagan, bu hodisa "mobbing" tushunchasi orqali ta'riflangan. 1972-yilda uning "Mobbing. Bolalar va kattalar o'rtasidagi guruhli zo'ravonlik" nomli monografiyasi nashrdan chiqadi. 1973-yilda esa Den Olveus o'zining "Maktab bezorilari va kaltaklanadigan bolalar" kitobida bezorilikning aniq namoyon bo'lish shakllarini tizimlashtirib, uning jismoniy va og'zaki turlarini ajratib ko'rsatdi. Shvetsiyalik tadqiqotchi A. P. Pikas 1975-yilda "Mobbingni qanday to'xtatish mumkin?" nomli asarini e'lon qiladi va unda bu hodisani guruhli o'zaro ta'sir dinamikasi sifatida tahlil qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

1980-yilda Finlandiya olimlari K. Lagerspets va K. S. Turku o'z tadqiqotlarida ham ta'qibchilar, ham jabrdiydalarning shaxsiy xususiyatlariga e'tibor qaratdilar. 1987-yilda Yevropa Kengashi tashabbusi bilan Norvegiyada mobbing muammosiga bag'ishlangan ilk xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi; uning ishida Yevropaning 40 ta davlati vakillari ishtirok etdi. Konferensiya yakunlariga ko'ra, keyingi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilgan "Turli mamlakatlarda bulling: muammo tahlili" nomli jamoaviy monografiya tayyorlandi. Shundan so'ng bir qator mamlakatlarda ushbu hodisani o'rganish va monitoring qilish bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashtirilgan tadqiqot markazlari tashkil etila boshladi.

Dastlabki ixtisoslashtirilgan tadqiqot markazi Dublinda ta'sis etildi. Uning faoliyati ham ta'qibchilar, ham jabrdiydalarning hissiy-shaxsiy xususiyatlarini o'rganishga hamda tazyiqlarning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan edi. 1989-yildan boshlab bulling muammosiga bo'lgan ilmiy qiziqish sezilarli darajada ortdi va bu holat nashrlar sonining ko'payishida o'z aksini topdi. Bir qator ilmiy ishlarda bulling bilvosita agressiya prizmasi orqali talqin qilindi. 1990-yilda hodisani o'rganishga Yaponiya, Kanada, Avstraliya va Shimoliy Amerikadan tadqiqotchilar qo'shildi; bu mamlakatlarda jabrdiydalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan samarali profilaktika dasturlari va amaliy loyihalar yaratish maqsadida empirik tadqiqotlar o'tkazila boshlandi.

2004-yilda navbatdagi ilmiy konferensiya tashkil etilib, unda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining hisoboti taqdim etildi. Konferensiya yakunlariga ko'ra, bullingning kelib chiqish sabablarini tadqiq etish metodikalarini ishlab chiqish hamda ushbu hodisaga qarshi kurashish bo'yicha keyingi xalqaro sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish zarurligi to'g'risida rezolyutsiya qabul qilindi. 2006-yilga kelib Osiyo mintaqasida ham bu muammoga e'tibor kuchaydi. Dunyoning bu qismidagi dastlabki tadqiqotchilardan biri Igor Semyonovich Kon bo'ldi. U o'zining "Bulling nima va unga qarshi qanday kurashish kerak?" nomli maqolasida bullingga shaxsni bo'ysundirishga va unda qo'rquv hissini shakllantirishga qaratilgan qo'rqitish hamda psixologik yoki jismoniy terror shakli deya o'z ta'rifini taklif qildi.



Markaziy Osiyoda bulling mavzusi asta-sekin ilmiy muhokama va empirik o'rganish darajasiga chiqib bormoqda: agar 2001–2009-yillar oralig'ida bir-ikkita maqola chop etilgan bo'lsa, 2016-yilga kelib bunday nashrlar soni 112 taga yetdi.

Turli yillarda A. A. Bochaver, S. V. Krivsova, I. S. Kon, S. N. Yenikolopov singari tadqiqotchilar tahqirlash (bulling) muammosi bilan shug'ullanib, unga qarshi kurashish choralarini nazariy jihatdan anglash va amaliy ishlab chiqishga o'z hissalarini qo'shganlar.

Tadqiqotchilar shaxslararo munosabatlardagi zo'ravonlik va tajovuzkorlik muammolariga ko'p bora murojaat qilganlar. Hozirgi kunda bu kabi holatlarning tez-tez uchrayotgani ushbu ijtimoiy hodisani o'rganishga bo'lgan ilmiy qiziqishning yangi to'lqinini yuzaga keltirdi. Bulling eng ko'p namoyon bo'ladigan muhit hamon umumta'lim maktablari bo'lib qolmoqda: o'qituvchilar tahqirlash holatlarini ham dars mashg'ulotlari davomida, ham darsdan tashqari vaqtda qayd etishmoqda. Bulling mavzusi pedagoglar hamjamiyati, psixologlar va ota-onalar tomonidan kasbiy va ijtimoiy tarmoqlarda faol muhokama qilinmoqda.

AQSH Maktab xodimlari milliy assotsiatsiyasi bullingga bir yoki bir necha o'quvchi tomonidan boshqa bir o'quvchiga nisbatan amalga oshiriladigan, dinamik tarzda takrorlanib turuvchi og'zaki va/yoki noog'zaki xatti-harakatlar majmuyi, deb ta'rif beradi va bunda zarar yetkazish niyatini asosiy belgi sifatida ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bolaning rivojlanishidagi ma'lum bir bosqichda maktab uning uchun asosiy ijtimoiy muhit vazifasini o'taydi: aynan shu yerda ilk shaxslararo munosabatlar shakllanadi, ilk do'stona rishtalar va o'zini namoyon etish holatlari yuzaga keladi. Barcha bolalar ham o'zlarini tengdoshlari tajovuzidan samarali himoya qila olmaydi. So'nggi yillarda maktab bullingi tobora kengayib, ayniqsa, o'smirlar orasida jiddiy xavotir uyg'otmoqda. O'smirlik davri yuqori darajadagi hissiy va ijtimoiy beqarorlik hamda guruhda ma'lum bir o'rin egallashga intilish bilan ajralib turadi; ijobiy shaxsiy fazilatlar orqali e'tibor qozona olmagan va o'zini ko'rsata olmagan ayrim o'smirlar o'z ustunligini isbotlash usuli sifatida sinfdoshlarini tahqirlash yo'lga o'tadilar.

Ekspertlar ko'pincha maktablarda sinfdoshlarga qarshi sodir etilgan bir qator otishmalarning sababini bulling hodisasi bilan bog'laydilar, biroq ularning bu boradagi xulosalari ehtiyotkorona tusga ega. Bunga misol tariqasida Kolumbayn o'rta maktabidagi mash'um voqea tez-tez keltiriladi: o'z joniga qasd qilgan ikki hujumchini hisobga olmaganda, ushbu hodisa oqibatida 13 kishi halok bo'lgan.

O'smirlar orasida bullingning paydo bo'lishiga turtki beruvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- agressorda tajovuzning individual ko'rinishlari, potensial jabrlanuvchida esa yuqori darajadagi viktimlik va konformizmga moyillikning mavjudligi; guruhda yaqqol "qurbon" va unga xos shaxsiy xususiyatlarining borligi;
- ijtimoiy-psixologik muhit noqulay bo'lgan, g'ayriijtimoiy guruh faolligi kuzatiladigan, jamoada me'yorlar va qadriyatlar birligi yetarlicha shakllanmagan guruh jarayonlari.

Xulq-atvordagi og'ishlar, odatda, komplekslar, qo'rquvlar yoki ilk psixologik jarohatlarga borib taqaladi; aynan shuning uchun ham maktab muhitida tazyiqlarning tarqalishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bullingning oldini olishni pedagoglar, maktab psixologlari va o'quvchilarning o'zlari nazorat qilib borishlari lozim. Tazyiqning davom etishi yoki bostirilishida atrofdegilarning munosabati muhim rol o'ynaydi: guvohlarning befarqligi, ularning sustkashligi yoki navbatdagi nishonga aylanishdan qo'rqishi tajovuzning davom etishiga sharoit yaratadi. Bulling jarayoniga, shuningdek, zo'ravonlikni ma'qullaydigan yoki qo'llab-quvvatlaydigan shaxslar ham jalb qilinadi – ular faol yoki passiv rol o'ynab, tajovuzkor xatti-harakatlarni rag'batlantirishi mumkin.

Shu bilan birga, faol va potensial himoyachilar ham mavjud:

- faol himoyachilar – bular vaziyatga aralashadigan, jabrlanuvchini himoya qiladigan va kattalarni yordamga chaqiradigan, yetakchilik qobiliyatiga ega shaxslardir;
- potensial himoyachilar esa tazyiqni ma'qullamaydi, biroq qo'rquv sababli passiv bo'lib qoladi.

Shunday qilib, bulling tuzilmasida uchta asosiy taraf ajratiladi: agressor (buller), jabrlanuvchi va guvohtar/kuzatuvchilar. Jabrlanganlar uchun bulling oqibatlarini tizimli tahlil qilish va ularni qo'llab-quvvatlash choralarini ishlab chiqish muhim jihatligicha qolmoqda.

Avvalo, bullingga duchor bo'lgan shaxslarda kuchli psixologik stress rivojlanadi. Bu somatik va ruhiy alomatlarda namoyon bo'lishi mumkin: organizmning holsizlanishi, suvsizlanish, umumiy tonusning pasayishi, kuchli xavotir, ta'sirchanlik, madorsizlik, depressiv holatlar, uyqusizlik, xotira buzilishlari hamda jiddiy ruhiy va psixologik kasalliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa buzilishlar shular jumlasidandir. Britaniyalik olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, o'smirlik davrida tazyiqni boshdan kechirganlar hayotda ko'pincha kamroq muvaffaqiyatga

erishadi, ishonchsizlik va xavotirga ko'proq moyil bo'ladi; ayrim hollarda bunday holatlarning kuchayishi o'z joniga qasd qilish bilan yakunlanishi mumkin, bu esa o'tkir ijtimoiy muammolardan biridir.

Shuni ta'kidlash joizki, tajovuzkorning o'zida ham ko'pincha psixologik muammolar kuzatiladi: qoida tariqasida, bullerlar kattalarning doimiy tajovuzi va bolalikda boshdan kechirgan ruhiy jarohatlari sharoitida shakllanadi. Bu esa ularni o'zlaridan zaifroq tengdoshlariga zug'um o'tkazish orqali hukmronlik qilish strategiyasini tanlashga undaydi.

N. Gordiyenkoning "Bulling: diagnostika, profilaktika, korreksiya" nomli asarida qiziqarli empirik ma'lumotlar keltiriladi: o'quvchilarning 60,0 foizdan ortig'i bullingga duch kelgan, shundan 33,33 foizi qizlar hissasiga to'g'ri kelgan. "Bu haqda gaplashish uchun kimga murojaat qilasiz?" degan savolga respondentlar quyidagicha javob bergan:

- do'stlar va dugonalarga – 29,9%;
- ota-onalarga – 38%;
- "Murojaat qiladigan hech kimim yo'q, o'zi menga hech kim kerak ham emas" – 14%;
- o'qituvchilarga – 3,3%;
- maktab psixologiga – 10,2%.

Maktab bullingini uzoq va ko'p qirrali tahlil qilish mumkin; biroq, bolalar o'rtasidagi munosabatlarga bo'lgan e'tiborimizni oshirmasdan va jamiyatdagi qarashlarni o'zgartirmasdan turib muammoni amalda hal etib bo'lmaydi. Jamiyatda hamdardlikning (empatiyaning) yetishmasligi yaqqol namoyon bo'ladigan salbiy hodisalarni keltirib chiqaradi. 1980-yillarning oxirigacha ko'plab jamiyatlarda, jumladan, Osiyo mamlakatlarida ham bulling tarbiya jarayonining bir qismi va shaxsni "chinqitirish" vositasi sifatida qaralgan; bunday vaziyatlar matonat, jasorat va qat'iyatni shakllantirishga yordam beradi, deb hisoblangan.

Afsuski, zamonaviy jamiyatda bu ijtimoiy hodisa ochiqdan-ochiq salbiy tus oldi. Maktab muhitida o'quvchilar ko'pincha "aybdor echki"ni tanlab olib, uni guvohlar ko'z o'ngida muntazam ravishda kamsitadilar. Jazosiz qolish va befarqlik bezorilikning avj olishiga zamin yaratadi hamda tajovuzning yanada ayanchli turlarini o'ylab topishga undaydi.

Qanday choralar ko'rish lozim? Avvalo, bullingning mavjud turlarini tasniflab, ularning ta'lim muhitida oldini olishning aniq yo'llarini belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Verbal bulling – bu muayyan bir shaxsga nisbatan haqoratlar va kamsituvchi fikrlarni o'z ichiga olgan og'zaki tahqirlashdir. Profilaktika bolalarni boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish, shaxslararo munosabatlarning ijobiy namunalarini ko'rsatish, har bir inson munosib muomalaga loyiq ekaniga ishonch hosil qildirish, shuningdek, bolada o'z qadr-qimmatini his qilish tuyg'usini va ijtimoiy jihatdan o'zini munosib himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga olishi kerak. Bola bilan zo'ravonlikning ehtimoliy ssenariylarini mashq qilish va og'zaki provokatsiyalarga javob berish strategiyalarini ishlab chiqish amaliy jihatdan muhim.

Jismoniy bulling – og'riq yetkazish va qo'rqitishga qaratilgan jismoniy tusdagi zo'ravonlik harakatlaridir. Yo'laklarda, hojatxonalarda yoki uyga ketish yo'lida "chetlatilganlar"ni do'pposlashning bugungi kundagi holatlari dominantlikka bo'lgan yaqqol intilishni namoyon etadi. Jismoniy zo'ravonlik belgilari – ko'karishlar, yirtilgan kiyimlar, bosh yoki qorin og'rig'idan tez-tez shikoyat qilish – sabablarni aniqlash va kattalarning yordam berishga tayyorligini tasdiqlash uchun bola bilan e'tiborli hamda muloyim suhbatlashishni talab qiladi.

Nizoli vaziyatlarning sanasi va davomiyligi, jalb etilgan shaxslarning munosabati hamda ko'rilgan ta'sir choralari qayd etib borish zarur. Agar bolaga nisbatan jismoniy zo'ravonlik davom etaversa, zudlik bilan ta'lim muassasasi ma'muriyatini xabardor qilish va tuman huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilish lozim. Zo'ravonlik va tazyiqlarga qarshi kurashishga qaratilgan hamda tuzatish choralari tezkor qo'llashni nazarda tutuvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud.

Kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirishning keng yoyilishi bilan zo'ravonlikning yangi shakli – kiberbulling (inglizcha: cyberbullying), ya'ni "elektron zo'ravonlik" paydo bo'ldi. Kiberbulling elektron pochta, matnli xabarlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali kamsituvchi matnlar, tuhmat va yolg'on mish-mishlar tarqatishda namoyon bo'ladi; jinsiyatchilik, irqchilik va boshqa kamsituvchi fikrlar tajovuzkor onlayn muhitni shakllantiradi. Zo'ravonlik holatlarini kuzatish mumkin bo'lgan maktab muhitidan farqli o'laroq, virtual olamda tajovuzkorni aniqlash ko'pincha qiyin kechadi, "ko'rinmas" tajovuzkorning ta'siri esa bola uchun yanada katta xavf tug'diradi. Shu munosabat bilan ota-onalarga bolaning onlayn muloqot doirasi va uning tarmoqdagi faolligi bilan qiziqish tavsiya etiladi.

Kamsituvchi xabarlar anonim va shiddat bilan tarqalish uchun katta imkoniyatga ega, bu esa doimiy kiberqo'rqitishga olib keladi. Ota-onalar farzandiga uning internetdagi faoliyatini nazorat qilish niyatida ekanini aytishi va kiberbullingga duch kelganda kattalarni xabardor qilish zarurligini tushuntirishi lozim. Bunda xabarlarining sanasi va mazmunini qayd etgan holda elektron dalillarni saqlab qo'yish va chop etish muhimdir. Kiberqo'rqitish



holatlari to'g'risida maktab va internet-provayder xabardor qilinishi kerak. Agar tarmoqdagi tajovuz kuchaysa, tahdidlar yoki ochiqdan-ochiq shahvoniy mazmundagi xabarlarni o'z ichiga olsa, tegishli choralarni ko'rish uchun huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilish zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bulling holatlariga qarshi kurashish bo'yicha taklif etilgan chora-tadbirlar, shubhasiz, muammoni to'liq bartaraf etmaydi. Faqat ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari – pedagoglar, ota-onalar va soha mutaxassislarining sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishgina ushbu ijtimoiy hodisaga samarali qarshi turishga va uning jamiyatda ildiz otishining oldini olishga imkon beradi.

Ko'rib chiqilayotgan muammoning mohiyatini tahlil qilish quyidagi xulosalarni shakllantirishga asos bo'ladi:

- Muammoning dolzarbligi.** Bulling zamonamizning eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri bo'lib, afsuski, o'zi bilan bog'liq global ijtimoiy xatarlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.
- Salbiy oqibatlar.** Bulling shaxs va uning psixosijtimoiy faoliyati uchun ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.
- Jamoatchilik qoralovi.** Bullingni jamoatchilik tomonidan faol va izchil qoralash zarur.
- Monitoring va ishonch.** Jamiyatda doimiy monitoring olib borish hamda bolalar va kattalar o'rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadli ishlarni yo'lga qo'yish talab etiladi.
- Befarqlikka toqatsizlik.** Zo'ravonlik holatlariga befarq bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.
- Psixologik barqarorlik.** O'zida jabrdiyda rolini shakllantirishdan qochish va ijtimoiy jihatdan o'zini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish lozim.
- Yagona xulq-atvor qoidalari.** Ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun aniq, adolatli va bir xil me'yor hamda qoidalarni ishlab chiqish va joriy etish zarur.

Hozirgi kunda bulling muammosi kinematografiyada tobora ko'proq aks etmoqda: filmlar va seriallarda zo'ravonlik namunalari hamda uning oqibatlari namoyish etilmoqda. Bu esa potensial tajovuzkorlar uchun demotivator vazifasini o'tashi va mazkur mavzuning jamoatchilik tomonidan muhokama qilinishiga turtki berishi mumkin. Shunga qaramay, bullingni global ijtimoiy hodisa sifatida qaraydigan bo'lsak, shuni ta'kidlash joizki, bu masala jahon hamjamiyati uchun ochiq qolmoqda: ushbu hodisa daxldor bo'lmagan birorta mamlakatning o'zi yo'q va tizimli yechimlarni ishlab chiqish uchun fanlararo tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bulling og'zaki, jismoniy va raqamli shakllarda namoyon bo'luvchi hamda jabrdiydalarning ruhiy-ijtimoiy holatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ko'p qirrali ijtimoiy-psixologik hodisadir.

Ushbu hodisaning sabablari tajovuzkor va jabrdiydaning shaxsiy xususiyatlari, guruhdagi nosog'lom muhit hamda guvohlarning befarqligini o'z ichiga oladi; kiberbulling esa anonimligi va ma'lumotlarning tez tarqalishi tufayli alohida e'tiborni talab qiladi.

Samarali profilaktikaga faqat kompleks yondashuv orqaligina erishish mumkin: bunday hodisalarni muntazam kuzatib borish va qayd etish, barcha uchun yagona va adolatli xulq-atvor qoidalarini joriy etish, hamdardlik tuyg'usini shakllantirish, o'quvchilarni vaziyatga mos javob qaytarishga o'rgatish hamda pedagoglar, ota-onalar, maktab psixologlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning o'zaro muvofiqlashtirilgan hamkorligini ta'minlash lozim.

Jamiyatda bullingning tarqalishini kamaytirish va barqaror yechimlarni ishlab chiqish uchun kelgusida fanlararo tadqiqotlar o'tkazish hamda keng ko'lamlil ta'sir choralarni amaliyotga tatbiq etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Психология девиантности: Дети. Общество. Закон. – Москва: Юнити, 2016.
2. Цибуцинина Ю. Н. Преодоление буллинга в начальных классах. – Тюмень. – Available at: https://library.utmn.ru/dl/VKR_Ishim/VKR_2020/Tsibutsinina.pdf
3. Ожиёва Е. Н. Буллинг как разновидность насилия. Школьный буллинг // Научная индустрия европейского континента: сборник докладов конференции. – Белгород: Рус-научкига, 2008.
4. Кон И. С. Что такое буллинг и как с ним бороться? // Семья и школа. – 2006. – № 11. – С. 15–18.
5. Ерина И. А., Бузни В. А., Корж А. А. Буллинг и пути его профилактики в образовательной практике // МНКО. – 2021. – № 1 (86).
6. Kengesbayevich R. M. The Role of Family in Adolescence // Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2025. – Vol. 40. – P. 184–185.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.